

TONG YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqarib boshlagan

2007-yil
21 – 27-may
N:21
(66614)



SO'NGGI QO'NG'IROQ!

Xayr, ona-maktab, mehribon dargoh,
Muqaddas darvozang bizga sajdagoh,
Qaylarda bo'lmayin, o'zing bo'l ogoh,
Xayr, ona-maktab, muqaddas dargoh!

Oh, ona zaminim — tabarruk tuproq,
O'rik butog'ida titraydi yaproq,
Hayotim yakuni bo'lmagin biroq,
Mag'rur jaranglagin, so'nggi qo'ng'iroq!

Hali qarshimizda ne-ne davonlar,
Sinov deb atalmish sir intihonlar,
Aylanib kelsa ham qancha zamonlar,
Mag'rur jaranglayver, so'nggi qo'ng'iroq!

Mana, o'g'il-qizing qilmoqda parvoz,
Ona - O'zbekiston aylasin e'zoz.
Boqiy oq yo'l deydi, qo'lda nazmiy soz,
Xayr, ona-maktab, mehribon dargoh!

Mag'rur jaranglayver, so'nggi qo'ng'iroq!

Ramazon BOQIY

BIR KITOB YOZSA ARZIYDI

Sirdaryo Davlat universitetida hamda Guliston Akademik litseyida «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati, Amir Temur ilmiy ekspeditsiyasi va «Tong yulduzi» gazetasi xodimlari ishtirokida «Vatanni sevmok iymondandir» mavzusida kengaytirilgan uchrashuvlar bo'lib o'tdi.

– Uchrashuv biz kutgandan ham a'lo darajada o'tdi, – deydi Quvondiq Muqimov, – bu to'g'rida bir kitob yozsa arziydi.

Uchrashuvda Amir Temur ilmiy ekspeditsiyasi rahbari F.Axrafxo'jayev, yozuvchi, temurshunos olim To'liq Hayit va Zayniddin Mavlonovlar ishtirok etishdi.

BILASIZMI?

Dunyoning 5 nuqtasida 2 mlrd. 700 million bola yashaydi.

Yer yuzida 800 million bola to'yib ovqat yemaydi.

Dunyoda 1 mlrd. bola qashshoq oilalarda yashaydi.

Inson butun umri davomida o'rtacha 2,5 tonna oqsil, 1,3 tonna yog', 17,5 tonna uglevod va 75 tonna suv iste'mol qiladi.

Yetuk odam tanasida osh tuzi miqdori taxminan 300 grammni tashkil qiladi.

Inson tanasi 44 - 45,5 darajadagi isitmani ko'tarishi mumkin.

Bir inson tomonidan bir kunda chiqadigan issiqlik 33 litr tuzni eritib, qaynatishga yetadi.

Qo'l telefoni raqamlarini olish ham katta pul bo'larkan. Qatar degan davlatda 666. 66.66 raqamli qo'l telefoni auksionda 2,8 mln. dollarga sotilgan.

Dunyoda eng ko'p sotib olinadigan kitob Ginnesning rekordlar kitobi sanaladi. 2006- yilda ushbu kitob nashri 100 million nusxaga yetdi.

Yer yuzidagi eng katta minora Kanadaning Toronto shahrida qad

ko'targan. Uning balandligi 553,34 metrni tashkil etadi.

Perulik fermer Rudolfo o'ziga tegishli dalada 15 kg. keladigan kartoshkani yetishtirib, rekord natijani qo'lga kiritdi.

Dunyoda eng qimmat mashina deb «ENZO FERRARI» (2004-yil) sport avtomashinasi hisoblangan. Soatiga 350 kilometr tezlikda yo'l bosadigan bu mashinaning narxi 652 ming AQSH dollariga baholangan.

Dunyoda eng ko'p sotiladigan robot AIBO deb ataladi. Yaponiyada ishlab chiqarilgan bu robot 2000 dollar bo'lib, ilk sotuvga qo'yilganda, unga 20 daqiqa ichida 3 mingta xaridor chiqqan.

Bolalar sevib aylanadigan eng baland karusel London shahrida qad ko'targan. Uning balandligi 135 metr bo'lib, butun shaharni tomosha qilish mumkin.

Eng katta internet-kafe Nyu-York shahrida joylashgan. Ikki qavatli bu internet-kafeda 760 ta kompyuter mavjud bo'lib, xizmat ko'rsatish jihatidan dunyoda eng yirigi hisoblanadi.

«TONG YULDUZI»NI SEVIB O'QISHADI



Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 453-bog'cha-maktab majmuasida ham yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Darsdan so'ng bolajonlar ko'plab to'garaklarda bo'sh vaqlarini mazmunli o'tkazmoqdalar.

Ayniqsa, o'qituvchi

Dilnoza Murodova boshchiligidagi «Adabiyot gulshani» to'garagi hamisha bolajonlar bilan gavjum. Ular «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini sevib o'qishadi.

ONAJONIM

Aziz onam, jon onam,
So'zlari marjon onam.
Validam, mehribonim,
Siz-la o'tsin har onim.

Izlaringizni o'pib,
Sizga gullar terayin.
Oq sutingizni oqlab,
Bor mehrimni berayin.



Mehribon MURTAZO qizi,
Toshkent shahri,
Sergeli tumanidagi
301-maktab o'quvchisi

KOLLEJ ESHIGI OCHIQ

Yunus Rajabiy nomidagi Toshkent Pedagogika kolleji o'zining mashhur o'quvchilari bilan dong taratgani bejiz emas. Osiyo chempioni bo'lmish Ilna Aslanova Dohada XV Osiyo olimpiadasida ishtirok etib, birinchi o'ntalik tarkibiga kirdi. Mahfuza Abdullayeva esa Turon kurashi bo'yicha olti karra Respublika chempioni bo'lib, oliy o'quv yurtiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Og'ir atletika bo'yicha Osiyo chempionlari bo'lmish Natalya Melnikova, Anora Ro'zimurodova kabi qator yosh sportchilar ana shu bilim maskanida tahsil olishadi. Muyassar Ilhomova «Eng yosh iqtidorli iste'molchi – 2006» Respublika bosqichi g'olibi bo'lgan bo'lsa, Sadoqat Musurmonova «Eng yaxshi kitobxon – 2006» tanlovining shahar bosqichi g'olibi bo'ldi.

– Kollejimizda ikkita sport zali, boks, tennis, yengil atletika o'yinlari uchun zallar faoliyat ko'rsatmoqda, – deydi kollej direktori Dilorom opa Rahimova. – O'quvchilar mahoratini oshirish maqsadida 15 turdagi turli to'garaklar doimiy faoliyat ko'rsatmoqda va bu to'garaklarda jami o'quvchilarning 76 foizi jalb qilingan.

– Bizda ta'lim yil davomida bog'cha va maktablar bilan hamkorlikda olib boriladi, – deya suhbatni davom ettirdi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Nasiba Yo'ldosheva, – ota-onalar kollejdagi tartib-intizom va o'quv jarayonini kuzatib, o'zlari ham ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, konsultativ markaz uzluksiz faoliyat olib boradi.

Haftada bir bo'lib o'tadigan ma'naviyat darslari ham maqtovgaga loyiq. Undan tashqari, 52 turdagi davriy nashrlarga obuna bo'lganmiz.

Muharrama PIRMATOVA yozib oldi

AZIZ BOLALAR VA O'SMIRLAR!

Orangizda odamlarga yaxshilik qiluvchi bolalar, yigit-qizlar ko'p. Ularning ana shu ezgu ishlari haqida bizga qisqa, lo'nda yozib yuboring. Biz ham ularni «Qanday yaxshilik qilding?» oddiy rukni ostida e'lon qilib boramiz.

QANDAY YAXSHILIK QILDING?

Mahallamizdagi Karim ota bozordan qaytayotgan ekanlar. Yuklarini uy-larigacha olib borib berdim va bundan xursand bo'ldim.

Muhammad
SOHIBOV,
Buxoro, 16 yosh

Ukamni bog'chaga olib borib qo'ydim. Onam dastyor bo'lib qolibsana, deb rosa suyundilar. Xursand bo'lganimdan sevinchimni sizlar bilan baham ko'rgim keldi.

Mohira JUMAYEVA,
Surxondaryo, 12 yosh

Dugonam Hafizaning tug'ilgan kunida unga Pirimqul Qodirovning «Bobur» romanini sovg'a qildim.

Nargiza OLIMOVA,
Andijon, 16 yosh

GAZETANING

«TUG‘ILGAN KUNI»



Iye, gazetaning ham tug‘ilgan kuni bo‘lar-kanmi, deya ajablanayotgandirsiz? Uning ilk soni chop etilgan sanani ramziy ma‘noda «tug‘ilgan kuni» deyapmiz-da. Gap qaysi gazeta xususida borayotganini bilasizmi?

Qoraqalpog‘istonlik bolalar va o‘smirlarning sevimli nashri «Jetkenshek» haqida. Uning chop etila boshlaganiga bu yil 75 yil bo‘ldi. Shu munosabat bilan gazeta Bosh muharriri Gulnora Nurlipesova bilan suhbatlashdik:

–1932-yil 20-yanvardan dastlab lotin imlosida 1550 nusxada chop etila boshlagan gazeta bolalar uchun ham, ularning ota-onalari uchun ham ajoyib sovg‘a bo‘lgan, –deya xotirladilar Gulnora opa. – Unga dastlab Maqsud Yakubov Bosh muharrirlik qilganlar. 1941-yilda ko‘p qatori gazeta tahririya-tida mehnat qilayotgan talaygina jurnalistlar ham qalamlarini qurolga almashtirib, Ikkinchi jahon urushiga otlanganlar. Jumat Habibullayev, Safar Qurbonov kabi jurnalistlar fashistlarga qarshi jangda mardlarcha halok bo‘ldilar. Shu paytda gazetaning chop etilishi vaqtinchalik to‘xtatilgandi.

Ko‘plab o‘quvchilarning talab va istaklari inobatga olinib, 1958-yil 1-yanvardan gazeta 10 ming nus-

xada chop etila boshladi. Uning Bosh muharriri etib yozuvchi Adenboy Tojimurodov tasdiqlandi. Tahririyatda Sag‘idulla Abbazov, Abdurazzoq Omonov, Guloysha Esemurodova kabi shoirlar mehnat qila boshladilar. O‘zbekiston Qahramoni taniqli yozuvchi To‘lepbergan Qayipberganovning «Muallimga rahmat!» povesti, Aytboy Bekimbetovning «Sirli izlar izidan», A. Tojimurodovning «Sarkopli botir» povestlari e‘lon qilindi. Shuningdek, sahifalaridan O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim Yusupov va taniqli bolalar shoiri, Berdaq nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Xolmurod Safarov kabi yozuvchi va shoirlarning ijod namunalari ham munosib o‘rin oldi.

–«Jetkenshek»ning istiqloldan keyingi faoliyati, mundarijasi haqida ham gapirib bering...

–O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng xalq ta‘limi tizimini reformalashga katta e‘tibor qaratildi. Bu boradagi qonunlarning mazmun-mohiyatini bolalarga sodda, ravon qilib yetkazishga harakat qilyapmiz. O‘quvchilarga internet va komp-

yuter texnologiyasini o‘rgatish bosh masalaga aylangan. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari bo‘lgan qoraqalpog‘istonlik qizlarimiz ilk bor gazetamiz orqali xalqqa tanilishgan.

–Gazetaning yosh muxbirlari ham talaygina bo‘lsa kerak-a?

–Yiliga 3500-4000 dona xat olamiz. Demak, yosh muxbirlarimiz soni ham shuncha. 100 dan ziyod faol muxbirlarimiz esa 2004-yildan buyon tahririyatimiz qoshida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan «Diluar» yosh muxbirlar to‘garagida bilim va mahoratlarini oshirib kelmoqdalar. To‘garak a‘zolari har oyda «Yoshi ulug‘ avlod bilan uchrashuv» kechasi uyushtirishadi. Ana shu maktabda shakllangan Bibimaryam Xo‘janova, Nargiza Qaipbergenova, Roya Jumaniyozova kabi muxbirlarimiz hozirgi kunda turli oliy o‘quv yurtlarida tahsil olmoqdalar.

«Jelqam», «Jas fiziklar», «Jas adabiyotchilar», «Meros» kabi klublarimiz ham bolajonlarimiz ixtiyorida.

–Ijodkor odamning rejalari ham mo‘l bo‘ladi-a?

–Gazetamiz o‘quvchilari bilan hamfikir bo‘lib, davr bilan teng qadam tashlashga intilyapmiz.

Ko‘p ming sonli «Tong yulduzi» o‘quvchilari nomidan «Jetkenshek»ni «tug‘ilgan kuni» bilan tabriklaymiz. Rang-barang sahifalari boyib, o‘quvchilari soni yana-da ortaversin.

Feruza JALILOVA
suhbatlashdi

A'lochilar



nashib, turli qutilar yasashni o'rganib oldi.

Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 49-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi Umid Jumanov maktabimizning eng a'lochi va ilg'or o'quvchilaridan. Bundan tashqari, Umid shahar o'quvchilar ijodiyot markazida ikki yildan buyon xalq amaliy san'ati – yog'och o'ymakorligi to'garagiga qat-

Maktab direktori S.S.MIN

TAHRIRIYATDAN:

Qadrli o'quvchilar! Kuzatib borayotgan bo'lsangiz, «A'lochilar» sahifamiz orqali respublikamiz maktablarida bilim olayotgan eng a'lochi o'quvchilar suratlarini e'lon qildik. Ushbu o'quvchilarning 1-Iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kunida tahririyatimizga taklif qilamiz. Ularga tahririyat tomonidan savollar tayyorlangan bo'lib, g'oliblar uchun 3 ta qimmatbaho mukofot ajratilgan.

Hurmatli maktab rahbarlari! «A'lochilar» tanlovida ishtirok etgan ro'yxatdagi o'quvchilaringiz bilan 1-iyun kuni soat 9⁰⁰da Navoiy ko'chasidagi 30-uyga tashrif buyurishingizni so'raymiz:

Bobur QURBONBOYEV, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, 16-maktab;

MEHRIBON, Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumani, 2-maktab;

Ahadjon NAIMOV, Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, 4-maktab;

Bibixon GUMANBOYEVA, Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumani, 44-maktab;

Kamola MAHKAMOVA, Namangan shahri, Chortoq tumani, 33-maktab;

Shohsanam ODILOVA, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, 14-

UBAYDULLAYEV, Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumani, 1-maktab;

Aziza JO'RAYEVA, Surxondaryo viloyati, Denov tumani, 44-maktab;

Oybek QAYUMOV, Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, 13-maktab;

Otabek KARIMJONOV, Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, 13-maktab;

Gulnoza AZIMOVA, Muhabbat AHMEDOVA, Sitara ORIPOVA, Nasibaxon TOJIDINOVA, Andijon tumani, 47-

maktab;

Jobir ISMATULLAYEV,

maktab;

Mirjamol TO'RAYEV, Buxoro Davlat universiteti huzuridagi gimnaziya;

Shuhrat

Jagina RO'ZIMURODOVA,

Qashqadaryo viloyati, Koson tumani, Mirzo Ulug'bek nomli ixtisoslashtirilgan maktab-internati;

Shahnoza NAZAROVA, Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumani, 13-maktab;

Sharof AXTAMOV, Jizzax viloyati, Forish tumani, 78-maktab;

Mohinur CHORIYEVA, Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani, 76-maktab;

Maxsuma YO'LDOSHEVA, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, 9-maktab;

Shahnoza AHMEDOVA, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, 142-maktab;

Nasiba TOIROVA, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 274-maktab;

Saodat SODIQOVA, Umid JUMANOV, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 49-maktab.

QOROVUL OTA

(Hikoya)

O'quv yilining birinchi kuniyoq Aziz uyga xomush qaytdi.

Maktab yozda chiroyli ta'mirlanibdi. Shinam, yorug' sinf xonalariga turli anjomlar o'rnatilgan. Hammaning og'zi qulog'ida.

Maktabga kiraverishdagi qorovulxona buzilib, sport maydonchasi kengaytirilibdi.

O'quvchilar avallari chinnidek qilib supurilgan yo'lak bo'ylab kelishar, qorovul ota ularni duo qilar-di. Darsdan qaytishda Azizjon uch-to'rtta o'rtog'i bilan qorovulxonaga bosh suqar, ota ularni ko'rpachaga o'tqazib, urush voqealaridan so'zlab berar edi.

Aziz kecha ham, bugun ham qorovul otani maktabda uchratmadi...

Muhayyo TO'LAGANOVA,

Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi, 3-umumta'lim maktabining o'qituvchisi

EZGULIKNING

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ijtimoiy himoya yili» Davlat dasturi qarori asosida jismonan va intellektual salohiyati cheklangan nogiron bolalar orasida Xalqaro maxsus olimpiya o'yinlari o'tkazildi.

Qadim va navqiron Buxoroda bo'lib o'tgan bolalar sport bayramida Ozarbayjon, Afg'oniston, Polsha, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya davlatlaridan kelgan yosh sportchilar hamda respublikamizdagi «Muruvvat bolalar uylari», maxsus internat va yordamchi maktablar tarbiyalanuvchilari badminton, basketbol, mini-futbol, gimnastika, yengil atletika sport turlari bo'yicha do'stona bellashdilar.

Bundan salkam 40 yil ilgari tashkil etilgan «Special Olympics» xalqaro tashkiloti bugungi kunda 167 ta mamlakatni o'z atrofiga birlashtirgan. Ular safiga 2001-yilda qo'shilgan O'zbekiston maxsus olimpiada tashkiloti imkoniyati cheklangan bolalarni sportga jalb qilish orqali ularning faolligini oshirish, qobiliyatlarini rivojlantirish borasida ko'plab tadbirlarga bosh bo'lmoqda.

2001 – 2006-yillarda respublikada 20 ta klub ochilib, ularga futbol bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan, umumiy talim maktablari, «Muruvvat uylari»dan 4000 dan ziyod bolalar jalb qilindi. Shular-

da, Davlatimiz Madhiyasi yangraganda, olimpiadachi qizlarning maydonda «Buxoro», «SO» («Special Olympics») yozuvlari shaklida tizilganlarida, «Special Olympics» xalqaro tashkiloti ta'sischilari a'zosi Mark Feltgenning tabrik so'zi «Assalomu alaykum» deb boshlanganida, yosh sportchilar tomonidan ezgulik mash'alasi yoqilganida,



dan 1950 nafar qizlar respublika bo'yicha o'tkaziladigan ushbu tadbirda ishtirok etmoqda.

Mazkur xalqaro tadbir bolajonlarning haqiqiy sport bayramiga aylandi. 18 ming kishiga mo'ljallangan Buxoro sport majmuidagi tadbirning tantanavor ochilishi dillarga o'zgacha quvonch baxsh etdi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi bayrog'i olib kirilgan-

qalblarda g'urur va iftixor hissi yana-da jo'sh urdi.

Sport hamisha ezgulikka xizmat qilgan. Ezgulikning millati yo'qdir. Zero, xalqlar do'stligi, millatlar birligi yengilmas kuchdir. Garchi maxsus olimpiada ishtirokchilari turli tillarda so'zlashsalar-da, ularning maqsad-maslagi birdir:

DO'STLIK, EZGULIK, MEHR-OQIBAT...

MILLATI YO'QDIR

O'ZBEKISTON – MEHMONLARNIGOVIDA



Izzatulla, yosh sportchi, Afg'onistonning Kobul shahri:

–O'zbekistonga birinchi kelishim. Yurtingiz meni maftun etdi. Odamlari mehribon, shirinso'z. Bu o'lkaga nasib bo'lsa, yana kelish niyatim bor.

–Biz ko'plab davlatlarda bo'lganmiz, – suhbatimizga qo'shilishdi Kobuldagi milliy sport maktabi direktori **Nasrulloh Izzat** hamda murabbiy **Rafiulloh**. – O'zbekiston bizda o'zgacha taassurot qoldirdi. Ular bizga juda yaxshi e'tibor ko'rsatishdi.

Erkan Kazim Jilasun, Turkiya maxsus olimpiada tashkiloti direktori:

–Sport bayramining ochilishiga katta tayyorgarlik ko'rishibdi. Menga va guruhimiz o'g'il-qizlariga juda yoqdi. Ishtirokchilar bilan o'zingiz suhbatlashib ko'ring-a.

Nalan O'zbu-

rum, Izmiridagi «Konak meslek okulu»,

Nur Yavuz, «Hasan tahsil okulu» o'quvchilari:

– Biz 50 metrga yugurish bo'yicha 2-o'rinni oldik. Bundan sira xafa emasmiz. Eng asosiysi, qizlar bilan do'stlashib oldik.



USTOZLAR ISHONCHINI OQLASHDI

267 nafar o'quvchini o'z bag'riga olgan Buxorodagi 27-maxsus maktab-internatida nafaqat sportga, balki bolajonlarni hunar o'rgatishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Mehnat ta'limi mashg'ulotlari orqali ularga duradgorlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, tikuvchilik, naqqoshlik, zardo'zlik kabi hunarlar o'rgatiladi. Ayniqsa, Ravshan Xolmurodovning o'ymakorlik, Zebunniso Ibodovanning zardo'zlik, Mehriniso Soliyevaning munchoq bilan tikish san'atini puxta o'rganayotgani fikrimiz isbotidir.

Shuningdek, sport musobaqalarida ham faollikni qo'ldan bermayotgan o'quvchilar o'tgan yili Toshkentda o'tkazilgan musobaqalarda oltin, bronza medallari sohibi bo'ldi. Bugungi Xalqaro olimpiada o'yinlarida ham ishtirok etib, ustozlar ishonchini oqlashdi.



QALBLARNI CHAROG'ON

ETGAN MASH'ALA



*Afg'onistonlik Sadaf
50 metrga yugurish bo'yicha
birinchi o'rinni oldi.*

SOG'LIGIMIZ HAQIDA QAYG'URISHADI



Poytaxtimizning 2-son «Muruvvat uyi»da 4 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan 400 nafar bolajonlar tarbiyalanadi. Ular uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Imkoniyatiga qarab, tikish, rasm chizish, musiqa,

kompyuter, ayniqsa, sport bilan shug'ullanishlariga alohida e'tibor beriladi.

To'rt yildirki, «Muruvvat uyi» bolalari Xalqaro maxsus olimpiada o'yinlarida faol ishtirok etib, oldingi o'rinlarni egallab kelmoqda. Shu bo'lsmi, ularni erkalab, «sportchilar» deyishadi.

–Biz sportning yengil atletika, uzunlikka sakrash bo'yicha o'zaro bellashdik, – deydi bir-biriga gap bermay Shohsanam Ziyomammedova, Gulsara Rahimova, Aziz Anorqulov. –Ustozlarimiz mehribon, ko'nglimizga qarashadi. Hamshira opamiz Munavvar Qodirova, bosh shifokorimiz Umida Asadullaxo'jayeva kabilar bizni sog'lig'imiz haqida qayg'urishadi, sport bilan doimo do'st bo'lishimizni eslatib turishadi.

Toshkent viloyatidagi «Fizika-quyosh» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasida oftob nurlaridan alanga oldirilgan mash'alani yoqqanlardan biri yosh sportchi Kseniya Nurligayanova besh yildirki, xalqaro olimpiada o'yinlarida ishtirok etib kelmoqda. U sportning yengil atletika, suzish turlari bo'yicha muntazam shug'ullanadi. Qozog'iston, Malayziya,



Irlandiyadagi xalqaro olimpiada o'yinlarida ishtirok etib, bir necha bor oltin, kumush medallar sohibi bo'lgan.

Kseniya mash'alani yoqar ekan, insonlar qalbida **MEHR**ni yana-da alangalatdi. Mehr orqali esa, inson qalbidan nur taraladi. Bu nur go'yo oftob nurlaridan alanga oldirilgan mash'alada mujassam bo'ldi.

Feruza SOYIBJON qizi



Nargiza OCHILOVA (o'ngdan birinchi), Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 19 – maxsus-internat maktabi-ning 9-sinf o'quvchisi.

U ham 50 metrga yugurish bo'yicha birinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

ZAFAR DIYOR

Oz-oz o'rganib...

O'zbek bolalar adabiyotining o'ziga xos boy tarixi bor. Bu adabiyotning tug'ilishi, shakllanishi va gurkirab o'sish yillari bo'lgan. Jahon bolalar adabiyoti xazinasiga hissa bo'lib qo'shiladigan ajoyib asarlari yaratilgan. Bu asarlar turli tillarga tarjima bo'lib, o'zbek bolalarining mazmundor, quvnoq hayotidan hikoyalar so'zlab bergan. Ana shu adabiyotni ulug'lagan zabardast adiblardan biri Zafar Diyor edi. U qisqa hayoti davomida bir-biridan go'zal she'rlar, qiziqarli hikoyalar, pyesalar yaratib, bitta kitobga joylab, siz bilan bizga hadya qilib ketgan. Bu hassos shoirni o'z vaqtida «BOLALAR ADABIYOTINING YARATUVCHISI» deb ulug'laganlar. She'rlaridan namuna keltiramiz:

GUNAFSHA

Gunafshaxon, gunafsha,
Kulishlaring chiroyli.
Bog'imizda ochilib,
Turishlaring chiroyli.
Hamma chiqar dalaga,
Gunafshalar tergal.
Men ham yig'dim bir dasta,
Opamizga bergali.
– Mana, opa, gunafsha,
Qarang, qanday chiroyli.
– Yuring, – dedi opamiz,
– Gunafshalar teraylik.

Gunafshalar ochildi,
Chakkangga taq, chakkangga.
Atir hidi sochildi,
Chakkangga taq, chakkangga.
Lazzat olib hididan,
Bolarilar uchadi.
Ipak qanot kapalak,
Barglaringni quchadi.
Gunafshaxon, gunafsha,
Kulishlaring chiroyli.
Ko'ksimizda hid sochib,
Turishlaring chiroyli.

DONOLAR O'GITI



Donishmand va olimlarning xulqlaridan o'rnak olish yaxshi xulqni tiriltiradi, yomonni yo'q qiladi.

Abu Rayhon BERUNIY

* * *

Ziyraklar suhbat etar baxtiyor,
Nodon nafida ham doim zarar bor.

Nosir XUSRAV

* * *

Nodon odam molni, aqlli odam
esa fazl-u kamolni qidiradi.

Muhammad ZEHNIY

TEST
SINOVLARIGA
TAYYORMISIZ?

1. Maxsus kimoshdi savdo bozorlarida tovarlardan talabgor xaridorga sotish usuli nima deb nomlanadi?
2. O'n ikkita yulduzlar majmui nima deb ataladi?
3. Namatak gulining yana qanday nomi bor?
4. Suvda yotar, suv ichmas, yurganini odam sezmas, bu nima?
5. Ikki kishining suhbat nima deyiladi?
6. O'rgimchak, chayon va dengiz qisqichbaqasining qoni qanaqa rangda bo'ladi?
7. O'simlik dunyosi fanda nima deb yuritiladi?
8. «Sarbador» so'zi qanday ma'noni bildiradi?

MAQOLLAR MAZ-
MUNINI CHAQA OLA-
SIZMI?1. Kuniga yuz tulki olsa ham
tozining it oti qolmaydi.

Bu maqol bilan majozan: «Xizmatchi har qancha uddaburon, harakatchan, mehnatsevar bo'lmasin, har qanday katta, mushkul ishlarni bajarmasin, baribir xo'jayin uni odam o'rnida ko'rmaydi, kamsitadi, nazariga ilmaydi, haqoratlaydi, demoqchi.

2. Kurkurak kurmaguncha
tok ochma.

Odatda bahor faslining oxirida, behi gullaganda, hamma qushlardan keyin ko'k qarg'a keladi. Uni «qiroq-qiroq», «kurkurak» deb ham ataydilar. Bobodehqonlar, tajribali bog'-

bonlar, kurkurak kelmaguncha, behi gullamaguncha toklarni ochmas edilar. Chunki bu vaqtga kelib, ob-havoning hamma xavf-xatarlari o'tgan bo'ladi, ochilgan tokning sho'ralariga ziyon-zahmat yetmaydi. Ota-bobolar bu xususdagi nasihatlarini mazkur maqol vositasida aytib qoldirganlar.

3. Ko'ngil o'rnida bo'lsa, jon
joyida bo'ladi.

Kishining ko'ngli hamma narsadan xotirjam bo'lsa, joni ham joyida bo'ladi, ya'ni qiyinalmaydi, rohat-farog'atda yashaydi. Shuning uchun ham qariyalar olqish-duolarida, tann - sihatlik, xotirjamlik bo'lsin deb ezgu tilaklar bildiradilar.

Xudoyberdi
TO'XTABOYEV



Aziz o'quvchilar! Siz sirk tomoshalarini har gal tomosha qilganingizda, ajoyib xush kayfiyat bilan qaytasiz. Ayniqsa, afsungarlarning chiqishi sizda katta qiziqish uyg'otadi. Ularning sahnada xilma-xil mo'jizalarni namoyish qilishi sizni befarq qoldirmaydi, deb o'ylaymiz.

Bugun biz sizlarni oddiy stolning ichida «oltin baliq» paydo bo'lishi mo'jizasi bilan tanishtiramiz.

Afsungar: – Salom, aziz o'quvchilar! Afsungarlik san'atiga qiziquvchi bolalar! Biz sizlarni san'atning ushbu turiga qiziqishingizni inobatga olib, afsungarlik san'ati bilan tanishtirib boramiz.

Diqqat bilan kuzatib boring. Mana, qo'llarim yengigacha shimarilgan. Suv bilan to'ldirilgan stakanni qo'lga olamiz. Stakanda toza, musaffo suv, endi dastro'mol olib, stakan yuzini yopamiz. Dastro'molni stakan yuzidan yig'ishtirib olishimiz bilan idishda «oltin baliq» paydo bo'lganini ko'rib turibsiz.

MO'JIZALAR MO'JIZASI

Deylik, afsungar sizga bo'sh qutilarni namoyish qilib, uni ustini yupqa harir mato bilan yopadi. Keyin matoni olib, quti ichida paydo bo'lgan kabutarlarni birin-ketin uchiradi va yana allaqancha o'yinchoqlarni sizga taqdim qiladi. Bu mo'jiza qanday yuz berdi? Bu savolga javob topolmay, hayron bo'lasiz. Ana shu afsungardek mo'jizalar yaratib, tomoshabinlar aqlini shoshirishga oshiqayotgan bolalar ham orangizda topilsa kerak?! Shundaymi? Unday bo'lsa, sevimli gazetangiz «Tong yulduzi» sahifalarida «Mo'jizalar mo'jizasi» ruknida maktab, o'quvchilar saroyi, bolalar oromgohi sahnalarida namoyish qilish mumkin bo'lgan dasturlarni yoritib borishni niyat qildik. Unda ushbu chiqishlarni qanday namoyish qilish, uning sir-asrirlari bilan tanishtirib boriladi. Hamda unga zarur bo'lgan buyumlarni tayyorlash va ishlatish yuzasidan tegishli amaliy maslahatlar berib boramiz.

Qarabsizki, siz ham qirq afsungarlaridek bolalar o'rtasida ajoyib tomoshalar namoyish qilib, ularni olishiga sazovor bo'lishingiz mumkin.



Qiziq, baliq stakanda qanday paydo bo'ldi? Mo'jiza!

Mo'jiza siri

Mo'jizaning asosiy siri stakan o'rtasidagi moslashtirib tushirilgan ko'zguda. Buning uchun afsungar oldidan stakan bo'yiga mos kelib, oynani tushirib, orqasiga esa «oltin baliq»ni joylashtirgan edi. Afsungar stakan yuzini dastro'mol bilan yopib, oynani

dastro'mol ichiga ustalik bilan joylab, tomoshabiniga stakanda g'oyibdan paydo bo'lgan «oltin baliq»ni namoyish etadi.

Buning uchun oddiy stakan, stakan yarmiga mos keladigan ko'zgu va «oltin baliq»ni tayyorlab qo'yish lozim.

Navbatdagi mashg'ulotimizda yoqib yuborilgan rasm yoki afishani alanga ichidan asl holidek olish mo'jizasini namoyish etamiz.

Marhamat, gazetamizda «Mo'jizalar mo'jizasi» sahifasini kuzatib boring!

Tohir MULLABOYEV

BOLALIK QO'SHIG'I

Qalblarni o'rtab chalinganda so'nggi qo'ng'iroq,
Go'yo chaqin chaqib, bo'ldi momaqalldiroq.
Na'ra tort, guldira yana yorqinroq,
Bolalikning qo'shig'i – xazin va yangroq.

Xayr endi, bolaligim – poshsholigim,
Mo'ylabi sabza urgan o'smirlik chog'im.
Seni unutmasman ilk muhabbatim,
Mendan rozi bo'lgil, aziz maktabim.

Xush qol, muqaddas darsxonam, kutubxonam,
Xush qol, gulzorim, jannatmakonim.
Xush qolingiz, ko'zi yoshli ustozlarim,
Xush qolingiz, qadrdon sinfdoshlarim.

Ha, bugun uchirmamiz katta hayotga,
Parvoz qilarmiz kelajak – istiqbolga.
So'nggi qo'ng'iroq chorlar cho'qqilarga,
Bir-biridan ulug' orzu o'ylarga.

Qalblarni o'rtab chalinganda so'nggi qo'ng'iroq,
Go'yo chaqin chaqib, bo'ldi momaqalldiroq.
Na'ra tort, tinma, guldira yana yorqinroq,
Bolalikning qo'shig'i – xazin va yangroq.

Mirza Anvar KARIMOV

MAKTABIMIZ MATEMATIKLARI

Sevimli gazetamiz! Ishonasanmi, biz sening har bir soningni intiqlik bilan kutamiz. Maktabimiz olis bo'lsa-da, ko'nglimiz senga judayam yaqin. Shuning uchun maktabimizda o'tgan har bir bayram yoki tadbir haqidagi xabarni darhol senga yetkazgimiz keladi.

Yaqinda maktabimizda «Zukko matematiklar» bellashuvi bo'ldi. Darsdan tashqari bo'lib o'tadigan ushbu saboq bizni matematika olamiga yana-da qiziqtirib qo'ydi. Ko'pgina o'quvchilar hozir matematik krossvordlarni bimalol tuza olishyapti.

Senga xat yozishdan asosiy maqsadimiz, muxlislaring soni ortishini istaymiz. Shuning uchun ham ularni bellashuvga chorlamoqchimiz. Garchi ta'til eshik qoqayotgan bo'lsa ham maktablarda turli tadbirlar avjida. Bu safar o'zimiz tuzgan krossvord orqali tengdoshlarimiz bilimini sinagimiz keldi. Ta'til davrida ham sening rang-barang sahifalaring orqali o'z o'rtoqlarimiz hayoti, oromgohlardagi maroqli suhbat-u bayramlardan ogoh bo'lamiz, degan umiddamiz.

Samarqand viloyati,

Urgut tumanidagi

126-maktabning

7-, 8-, 9-sinf o'quvchilari

KROSSVORD


Savollar:

ENIGA:

1. $Y=X^2$ funksiya grafigi bo'lgan egri chiziq.
2. Burchakni o'lchash asbobi.
5. $Y=kx$ va $Y=k/x$ bog'lanishlar to'g'ri hamda teskari...
6. Doira bo'lagi.
7. Grek harfi.

BO'YIGA:

3. Yo'nalgan kesma.
4. $Y=k/x$ funksiyaning grafigi.
8. Katetlar nisbati.
9. Geometriya darsliklaridan birining muallifi.
10. «Funksiya» so'zining lotincha talqini.



Tahririyatimizga maktabni bitirish arafasida turgan o'quvchilardan ko'plab maktublar kelmoqda. Ularning xatlari hademay maktabni tamomlab, katta hayot sari qadam qo'yishlari, oldinda turgan imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib olishlari haqida hayajon bilan yozilgan.

Tengdoshingiz Lola Turdiboyeva bu yil Parkentdagi 18-maktabning 9-«A» sinfini tamomlayotgan ekan. Bu haqda bizga quyidagilarni yozib yuboribdi:

KATTA HAYOTGA QADAM

Men bu yil o'zim uchun qadrdon go'shaga aylangan sevimli maktabimni tugallab, katta hayotga qadam qo'yaman. Ayni damda eng katta orzuim – imtihonlarni a'loga topshirib, o'zim orzu qilgan bilim yurtiga o'qishga kirish. Buning uchun yil davomida faqat a'lo baholarga o'qishga harakat qildim. Shu tariqa kelajagimga oz bo'lsa-da, zamin yaratdim. Kelajakdagi orzuim ustoz suxandonlar – Nasiba Qambarova, Nasiba Maqsudova, Tolibjon Isroilov kabi suxandon bo'lish. Qolaversa, yurtimizga foydasi tegadigan inson bo'lib yetishish.

Lolaning maktubidagi **IMTIHON** so'zi O'zMUda tahsil olgan yillarimdagi bir voqeani yodingizda soldi...

Yozgi sessiyalar boshlandi deguncha, talabalarga imtihonlar tashvishi tusha boshlaydi. Bizning kursdoshlar boshida ham bu savdo yo'q emasdi. Hamma imtihonlar ham bir bo'lardi-yu, marhum domlamiz Begali Qosimov fanlaridan topshiradigan sinovimiz ham bir bo'lardi. Milliy universitet talabalari uchun B.Qosimovga imtihon topshirishdan og'ir narsa yo'q edi. «Milliy uyg'onish» fanining nomini tilga olishga ham cho'chidik. Chunki domlamiz juda qattiqqo'lligi, talabchanligi, ilm yo'lida

SINOVLARGA OZ QOLDI!

g'irromliklarni xush ko'rmasligi eng a'lochi kursdoshlarimizni ham oz-moz tashvishga solardi.

«QO'LGA TUSHGANIM»

Auditoriyada pashsha uchsa eshitgudek sukunat cho'kkan. Kursdoshlarim bitta-bitta chiqib, savol varaqalarini olib tayyorlana boshlashdi. Men ham savolni

olib, birinchi partaga kelib o'tirdim. Barchaning xayolida bir oy oldin tayyorlangan «shpargalka»larni ishlatish muammosi edi. Sabab, domlamiz sinchkovlik bilan hammamizni kuzatib turardilar. Sekin-asta «shpargalka»dan foydalanish «operatsiya»si boshlandi. Kursdoshlarimning bari «shpargalka»dan foydalanishardi-yu, lekin har safar negadir aynan men «qo'lga tushardim». Bu safar ham xuddi shunday bo'ldi. Kamina bir marta ogohlantirishdan so'ng auditoriyani tark etdim. O'sha imtihondan o'tish uchun ko'p ovora bo'lganim haliyam esimda.

IMTIHON

KIM UCHUN NIMA UCHUN

Endi esa o'ylab ko'raylik: o'sha vaqtda imtihon topshirish uchun kimni aldayotgan edim? Domlanimi yo o'zimni?.. Keyin tushunib yetsam, o'zimni aldayotgan ekanman. Axir imtihonni biz – talabalar domlamiz, o'tonamiz uchun emas, balki o'zimiz uchun topshiramiz-ku. Universitetdagi talabchan domlalarimiz Qozoqboy Yo'ldoshev, Umarali Normatov, Abdug'afur Rasulov, Nurboy Jabborov, Hamidulla Boltaboyevlar tufayli mukammal bilim oldim. Ish faoliyatida qiyinchiliklarni oson yengdim. Olgan ilmim menga har qadamda tirgak bo'la boshladi. Shundagina anglab yetdimki, qattiqqo'llik qilgan domlalar dunyodagi asl insonlar ekan.

SHIRILADIZ

Munozaraga Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 28-maktabning 10-sinf o'quvchilarini chorladik. Dilshoda Halimjonova 9-sinfda algebra fanidan topshirgan imtihoni bir umrga o'ziga saboq bo'lgani haqida shunday so'zlaydi: –Barcha fanlardan a'loga o'qiganim bois, algebra fanidan bo'ladigan imtihonga umuman tayyorlanmadim. Aksiga olgandek, menga tushgan savollar javobini bilmas edim. Hayajonlanganimdan nima qilishni bilmay, dugonamdan savollarga javob topib, menga kiritib yuborishini iltimos qildim. Dugonam aytganidek qildi. Hamma savolga to'g'ri javob yozibman-u, bittasini noto'g'ri ishlab qo'yibman. Ustozim juda qattiqqo'l edilar. Oldimga kelib, yozganlarimga ko'z yugurtirib chiqdilar. Hatto xatoimni ham tushuntirib berdilar. Xullas, imtihondan «5» oldim. Ammo hech ham xursand bo'lmadim. Chunki olgan bahoimdan vijdonim qiynalayotgan edi. Shu-shu imtihon topshirishdan oldin yaxshilab tayyorlanadigan bo'ldim.

Dilshodaning sinfdoshlari Oygul Abdurashidova, Rashida Mahkamova, Javhar Ro'zaliyev, Nurillo Abduhalilovlar ham imtihonni o'z bilimlarini sinash uchun topshirishlarini ta'kidlab o'tdilar.

Nima bo'lganda ham quyidagilarni yodingizda tutsangiz, Sizni oldinda kutayotgan «katta hayot»da qiynalmaysiz.

Birinchiidan, imtihon avvalo olgan bilimlaringizni sinovchi bir vosita ekanligini unutmang.

Ikkinchiidan, imtihon kelgusi hayotingizga qo'yiladigan poydevorning mustahkamligini ta'minlaydi.

Uchinchiidan, imtihon vaqtida «shpargalka»dan foydalanib, ustozingizni emas, o'zingizni aldagan bo'lasiz.

To'rtinchiidan, imtihonlardan haqqoniy o'tsangiz, ota-onangiz, ustozlaringiz, do'stlaringiz, eng asosiysi, vijdoningiz oldida yuzingiz yorug' bo'ladi.

Shunday ekan, oldinda turgan barcha imtihonlarni haqqoniy topshirasiz va ijobiy natijalarga erishasiz, degan umiddamiz. Buning uchun qunt bilan o'qishingiz kifoya, deb o'ylaymiz.

Gulyuz ORIFJONOVA

Aziz o'smirlar! Tijorat kompyuter tarmog'ida yangi imkoniyatlar bilan birgalikda yangi xavf ham oshayotganligini bilasizmi? Internet samarali vosita, ammo investorlarni aldash uchun ham u juda qulay. AQSHda internet orqali investorlarni ko'p aldashmoqda. Ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekistonda ham bu holat takrorlanishi mumkin. Shuning uchun internet tarmog'ida investorlar aldanib qolishlarining quyidagi turlarini bilib qo'rganlari ma'qul:

1.«Shaxsiy kompyuterlar orqali qanday ko'p pul ishlab olish mumkin?» kabi reklamalarni kompyuter tarmoqlarida ko'rish mumkin. Bunday investorlar 5 dollar qo'yib, maksimum 6 haftadan so'ng 60.000 dollar qilib qaytarib olishga harakat qiladilar. Faqatgina yangi ishtirokchilar topilmagan holda ishlar chippakka chiqadi.

2.Tavakkalsiz yolg'on (aldov). Internet tarmog'ida investorlarga «Ekzotik loyihalarga, ekin maydonlari uchun tavakkalchilikning past darajasida kapitalni

«INTERNET» TARMOG'IDAGI TOVLAMACHILIK

investitsiya qilish uchun imkoniyati» kabi takliflarni ko'rish mumkin.

Misol uchun, firibgarlardan biri amalda nom-nishoni bo'lmagan Kosta-Rikadagi kokos plantatsiyasi uchun bank

depozitlari singari yuqori stavkali qimmatli qog'ozlar bilan investorlarni jalb qilishga uringan. Haqiqatda esa hech qanday qimmatli qog'ozlar loyihasi bo'lmagan.

3.Internet tarmog'ida qaysidir aksiya turini tez sotish yoki sotib olish to'g'risida maslahat beruvchilar va maslahatini ishonchli manbaadan kafolatlanganligiga ishontirishga harakat qiluvchilar ham uchrab turadi. Aslida esa bunday odamlar insayderlar bo'lib, ular aksiya kursini oshirib, foyda oluvchi yoki aksiya kursi tushishidan manfaatdor bo'lishlari mumkin. Shuning uchun internetda «kafolatlangan daromad» kabi so'zlarni ko'rsangiz, yaxshisi, ularga ishonmang!

Feruza SINDAROVA,
Gulnora MUSLIMOVA



Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizayner va
sahifalovchi:
Fazliddin
SHOYODGOROV

Navbatchi:
Sayyora
JO'RAYEVA

Gazeta
O'zbekiston
matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007 yil
2 fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU bosh
muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAIONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manziliimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel./ faks: (99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV.

Noshir:
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi. Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 51615
Buyurtma N: J 3658